


# TurkLang • 2023

Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан  
Бухарский государственный университет  
Академия наук Республики Ташкент  
Евразийский национальный университет имени А. Н. Гумилёва Министерства образования и науки Республики Казахстан  
Самбульский технический университет

XI МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ОБРАБОТКЕ  
ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ

# TurkLang

2023 Узбекистан,  
Бухара,  
20-22 октября 2023 года



ОДИННАДЦАТАЯ  
МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ОБРАБОТКЕ  
ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ  

---

«TURKLANG 2023»

Труды конференции

2023

УДК 004.8+81'32  
ББК 81.1

**Организаторы:**

**Министерство высшего образования, науки  
и инноваций Республики Узбекистан**

**Бухарский государственный университет**

**Академия наук Республики Татарстан  
Институт прикладной семиотики**

**Евразийский национальный университет имени Л. Н. Гумилёва  
Министерства образования и науки Республики Казахстан  
НИИ «Искусственный интеллект»**

**Стамбульский технический университет**

**Научные редакторы:**

Д.филол.н. Тоирова Г. И.  
Д.филол.н. Абдурахмонова Н. З.  
К.пед.н. Юлдашева Д. Н.,  
К.т.н. Гатиатуллин А. Р.

**Одиннадцатая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2023», – Труды конференции. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2023. – 1030 с.**

ISBN 978-5-9690-1197-7

Сборник содержит материалы Одиннадцатой Международной конференции по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2023» (Бухара, Узбекистан, 20–22 октября 2023 г.)

Для научных работников, преподавателей, аспирантов и студентов, специализирующихся в области компьютерной лингвистики и ее приложений.

УДК 004.8+81'32  
ББК 81.1

ISBN 978-5-9690-1197-7

© Коллектив авторов, 2023

---

## ПРОГРАММНЫЙ КОМИТЕТ

1. Адалы Ешреф (Стамбул, Турция) – сопредседатель
2. Сулейманов Джавдет Шевкетович (Казань, Татарстан, РФ) – сопредседатель
3. Шарипбаев Алтынбек Амирович (Астана, Казахстан) – сопредседатель
4. Хамидов Обиджон Хафизович (Бухара, Узбекистан) – сопредседатель
5. Абдурахмонова Нилуфар Зайнобиддиновна (Ташкент, Узбекистан)
6. Алтынбек Гулила (Урумчи, Китай)
7. Арипов Мирсаид Мирсидикович (Ташкент, Узбекистан)
8. Бекманова Гульмира Тылеубердиевна (Астана, Казахстан)
9. Гатиатуллин Айрат Рафизович (Казань, Татарстан, РФ)
10. Гильмуллин Ринат Абрекович (Казань, Татарстан, РФ)
11. Дыбо Анна Владимировна (Москва, РФ)
12. Ергеш Бану Жантуганкызы (Астана, Казахстан)
13. Исраилова Нелла Амантаевна (Бишкек, Кыргызстан)
14. Кубединова Ленара Шакировна (Симферополь, Крым, РФ)
15. Мамедова Масума Гусейновна (Баку, Азербайджан)
16. Назирова Элмира Шодмоновна (Ташкент, Узбекистан)
17. Ооржак Байлак Чаш-ооловна. (Кызыл, Тыва, РФ)
18. Офлазер Кемаль (Доха, Катар)
19. Рахимова Диана Рамазановна (Алматы, Казахстан)
20. Садыков Ташполот (Бишкек, Кыргызстан)
21. Салчак Аэлиита Яковлевна (Кызыл, Тыва, РФ)
22. Сиразитдинов Зиннур Амирович (Уфа, Башкортостан, РФ)
23. Сулайманов Мухаммад-али (Симферополь, Крым, РФ)
24. Татевосов Сергей Георгиевич (Москва, РФ)
25. Тоирова Гули Ибрагимовна (Бухара, Узбекистан)
26. Торотоев Гаврил Григорьевич (Якутск, Саха (Якутия), РФ)
27. Тукеев Уалишер Ануарбекович (Алматы, Казахстан)
28. Чумакаев Алексей Эдуардович (Горно-Алтайск, Алтай, РФ)

---

## ОРГАНИЗАЦИОННЫЙ КОМИТЕТ

Председатель – Хамидов Обиджон Хафизович (Бухара, Узбекистан)

Заместитель председателя – Расулов Тулкин Хусенбович – (Бухара, Узбекистан)

### ЧЛЕНЫ ОРГАНИЗАЦИОННОГО КОМИТЕТА:

Абдурахмонова Нилуфар (Ташкент, Узбекистан)

Тоирова Гули Ибрагимовна (Бухара, Узбекистан)

Гатиатуллин Айрат Рафизович (Казань, Республика Татарстан, РФ)

Жумаев Рустам Ганиевич – (Бухара, Узбекистан)

Жураев Абдор Туробович – (Бухара, Узбекистан)

Зарипов Гулмурод Тохирович – (Бухара, Узбекистан)

Ражабов Дилшод Зарипович – (Бухара, Узбекистан)

Астанова Гулнора Аминовна – (Бухара, Узбекистан)

Ахмедов Атоуллох Рахматович – (Бухара, Узбекистан)

Эшонкулов Хусниддин Пиримович – (Бухара, Узбекистан)

Юлдашева Дилором Неъматовна – (Бухара, Узбекистан)

Қиличев Байрамали Эргашевич – (Бухара, Узбекистан)

Қодирова Рўзигул Саъдуллаевна – (Бухара, Узбекистан)

Халилова Рухсора Рауповна – (Бухара, Узбекистан)

Хамроева Нафиса Низомиддиновна – (Бухара, Узбекистан)

Хайруллаева Гуласал Файзулло кизи – (Бухара, Узбекистан)

Зарипова Азиза Кахрамоновна – (Бухара, Узбекистан)

УДК 81-11

## “TEMUR MALIK” ASARIDAGI GIDRONIMLAR

*Kilichev Bayramali Ergashovich,  
Sharopova Ferangiz Nurmatovna  
Buxoro davlat universiteti*

b.e.kilichev@buxdu.uz, f.n.sharopova@buxdu.uz

Ushbu maqolada Mirmuhsinning “Temur Malik” asaridagi gidronimlar, xususan, Xazar (Kaspiy) dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabilar leksik-semantik va tarixiy- etimologik jihatdan tahlil etilgan.

**Kalit soʻzlar:** “Temur Malik” romani, toponim, toponimika, gidronimlar, gidronimiya, Xazar (Kaspiy) dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Koʻhak, Narshaxiy, Bobur, leksik-semantik, tarixiy-etimologik.

This article analyzes hydronyms in Mirmuhsin’s work “Temur Malik”, in particular, the Khazar (Caspian) Sea, Amu Darya, Syr Darya, Zerafshan, from a lexical-semantic and historical-etymological point of view.

**Keyword:** “Temur Malik”, novel, toponym, toponymy, hydronyms, hydronymy, Khazar (Caspian) Sea, Amu Darya, Syr Darya, Zerafshan, Kohak, Narshakhi, Babur, lexical-semantic, historical-etymological.

В данной статье с лексико-семантической и историко-этимологической точки зрения анализируются гидронимы в произведении Мирмухсина «Темур Малик», в частности, Хазар (Каспий)ское море, Амударья, Сырдарья, Зерафшан.

**Ключевые слова:** “Темур Малик”, роман, топоним, топонимия, гидронимы, гидронимия, Хазарское (Каспийское) море, Амударья, Сырдарья, Зерафшан, Кохак, Наршахи, Бабу, лексико-семантический, историко-этимологический.

**Mavzuning dolzarbligi.** Badiiy asar tilini oʻrganish orqali muallifning bosh gʻoyasini anglash imkoni paydo boʻladi. Bunda asarda qoʻllangan atoqli otlar, xususan, gidronimlar muhim oʻrin egallaydi. Badiiy, ayniqsa, tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarda xalqimizning boy oʻtmishi, millatimizning shakllanish jarayonlari, shuningdek, bugungi kunlargacha yetib kelgan nomlar haqida qimmatli maʼlumotlar yigʻilgan boʻladi. Ularni har tomonlama oʻrganish tariximiz va madaniyatimiz, qolaversa, maʼnaviyatimiz uchun ham muhimdir.

**Muammoning oʻrganilish darajasi.** Tilimizda suv nomlari bilan bogʻliq koʻplab lugʻaviy birliklar mavjud. Ular uzoq davrlardan beri qoʻllanilib kelmoqda. Fanda suv bilan bogʻliq nomlar gidronimlar deb

ataladi. Gidronimlar joy nomlari sanalgan toponimlardan ham qadimiyroq bo'ladi. Chunki tarixdan ma'lumki, kishilar suv havzalari, daryo, ko'l bo'ylarida o'troqlasha boshlagan. O'tqor hayot kechirish esa toponimlarning paydo bo'lishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli diunyoning deyarli barcha hududida aholi yashash maskanlari daryolar yoki boshqa suv havzalari yaqinida joylashgan.

Aytish o'rinliki, badiiy asar tilidagi gidronimlarni o'rganish borasida sanoqli ishlargina amalga oshirilgan. Bular sirasiga N.Begaliyevning dissertatsiyasini, T.Nafasov, Sh.Nafasov, N.Uluqov, A.Muhammadjonov va boshqalarning maqolalarini kiritish mumkin. Ko'chilik tadqiqotchilar gidronimiyani hududiy toponimiya tarkibidagi bir guruhlar, nomlar qatlami sifatida o'rganish bilan cheharalangan.

Tarixiy gidronimlar, xususan, o'zbek romanchiligi namunalaridagi suv nomlari hozirga qadar lingvistik jihatdan tahlil etilmagan. Ularni o'rganish tilimizning atoqli otlar fondi uchun ham, tariximizni o'rganish uchun ham muhim sanaladi [1;314–317].

Gidronim toponimlarning bir turi bo'lib (hidro – suv+onoma – atoqli ot), suvliklar nomini ifodalaydi. Gidronim toponim turi sanaladi. Aytish lozimki, O'zbekiston toponimiyasi gidronimlarga juda boydir. Unda daryo, ko'l, ariq, kanal, soy, buloq, chashma, jilg'a va boshqa komponentli atoqli otlar ko'p uchraydi. Gidronimlarning hosil bo'lishida ushbu komponentlar faol qo'llaniladi va turkiy tillarning deyarli barchasida uchraydi. "Devon-u lug'otit turk", "Tafsir", "Boburnoma" asarlarida *su*, *suu*, *suv*, *sub*, *suy* shakllarida ishlatilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Toponimlar tarkibidagi suv so'zi "ariq", "daryo", "buloq" semalariga ham ega: *Qorasuv*, *Oqsuv*, *Kattasuv* kabi.

Xuddi shuningdek, ko'l komponentli gidronimlar ham deyarli barcha turkiy tillarda uchraydi: *Issiqko'l*, *To'dako'l* (*Buxoro*), *Ayg'irko'l* (*Jizzax*), *Aydarko'l*.

Qozoq tilshunos olimi T.Jonuzoqov Qozog'istonning ulkan hududida 85 mingdan ortiq daryo bor, ulardan 8 mingi o'n kilometrdan uzun; ko'llar soni 50 ming atrofida [2; 27], deb qayd etgan.

Biz ushbu axborotda Mirmuhsinning "Temur Malik" romanida uchraydigan Xazar (Kaspiy), Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi ayrim tarixiy gidronimlarni semantik-etimologik jihatdan tahlilga tortamiz.

Xazar. Dengiz nomi. Ushbu gidronim haqida fikr yuritgan P.V.Jilo o'z maqolasida *yer sharida bironta dengiz shuncha nomning yarmiga ham ega bo'la olmagan*, deb qayd qilib, dengizning yetmishta nomini sanagan [3].

H.Hasanov dengiz haqida gapirib, uning o‘z tevaragidagi viloyatlarning nomi bilan, sohillardagi mashhur shaharlarning ismi bilan, o‘ziga quyiladigan daryolarning nomi bilan, atrofda yashagan xalqlarning oti bilan atalgan. Kaspiy va Orol dengizlarining tarixiy toponimik kartalari bunga yaqqol misol bo‘la oladi [4; 5], deya qayd etib, P.V...Jilo aniqlaganlariga yana o‘nta nom qo‘shgan.

Ushbu gidronimning etimologiyasi borasida, bizningcha, T.Jonu-zoqovning fikri asoslidir. Olim o‘zining maqolasida Xazar – Kaspiy dengizining nomi haqida fikr yuritib, nomning ikki qismdan iboratligi, kas – xalq nomi, pi (fonetik variantlari: bi, bu, ba) – ko‘l, daryo, buloq. Demak, Kaspiy gidronimi ko‘l ma‘nosiga ega bo‘lib, *kas xalqining ko‘li* tarzida sharhlanishi mumkin [2; 28].

Demak, Kasbiy gidronimi *Kas xalqiga tegishli ko‘l* degan ma‘noni bildiradi. Xuddi shunday fikr S.Ataniyazov tomonidan ham bildirilgan: *kasbiy so‘zi kas va (pi) elementlaridan tashkil topgan. Kas (xalq nomi) pi (bi) ko‘l, buloq ma‘nolarini bildiradi* [5; 26].

Hazar so‘zi urug‘ bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu dengiz atrofida yoki yaqinida yashagan qabila nomidan olingan bo‘lishi ehtimoli bor [6; 43].

Amudaryo. O‘zbekiston chegarasidan o‘tuvchi Amudaryo bilan bog‘liq qaydlar qadimgi grek va Xitoy, turkiy yozma yodgorliklarda uchraydi. Ilk yozma ma‘lumot Oks (Oksos) nomi bilan grek manbalarida uchraydi. Oks mahalliy *o‘kuz* – daryo so‘zining grek tilidagi talaffuzi asosida vujudga kelgan.

Ya.G‘ulomov o‘zining asarida O‘kuz – Amudaryoning mahalliy sak – massaget nomi bo‘lib, o‘rta asrning eng so‘nggi davrigacha saqlanib qolgan [7; 37], deya qayd qilgan.

V.V. Bartoldning “К истории орашения Туркестана” (СПб, 1914. – С. 71) kitobida Amudaryoning yana bir nomi Jayxun haqida fikr yuritilib, uning Tavrotdagi Gixon nomini arabcha shakli asosida paydo bo‘lganligi ko‘rsatilgan.

Daryo nomining hozirgi Chorjo‘y shahrining avvalgi nomi Amuya bilan bog‘liqligi bor [8;13].

Bu fikrni H.Hasanov ham quvvatlab, *daryoning ayrim bo‘laklari-Jar‘yob, Balx daryosi, Termiz daryosi, Kolif daryosi, Urganch daryosi, Xorazm daryosi nomlari bilan yuritilgan. Jumladan, u o‘rta oqimidagi Omul, Omulya (XV asrdan Chorjo‘y) shahri yonida Omuy daryosi deb atalgan, qisqarib Omul bo‘lib qolgan (bu so‘zning asl ma‘nosi aniq emas, amurd ismli xalqqa dahli bo‘lsa, ehtimol)* [4; 46], degan.

Demak, Amudaryo nomi Amuya toponimi asosida shakllangan.



Sirdaryo. Daryo nomi. Antik davrda daryo mahalliy tilda Yaksarta deb atalgan, yunon manbalarida qisqacha Yaksart deyilgan. Pliniy *Yaksart daryosini skiflar Silis deb ataydi. Sir – daryoning qadimiy sak tilidagi nomi. Sir nomi dastlab daryoning quyi oqimiga, Yaksart nomi esa o‘rta va yuqori oqimiga tegishli bo‘lgan* [9].

Boshqa manbada gidronim hind-yevropa tillariga xos *sal – tuz* so‘zidan olingan. daryo o‘zanida suv yig‘ilib, etaklari oqarib turadi, ya‘ni *tuzli daryo* demakdir [10; 5–8].

Sirdaryo haqida H.Hasanov fikr bildirib, bu nomni eshitish bilanoq “Sirlı daryo” deb fahmlaysiz. Biroq bu daryoning hech siri yo‘q, ammo nomining tarixi fan uchun rostdan ham sirdir, deya qayd etib, uning *sir, ya‘ni rang, bo‘yoq; tog‘ oralaridan, sirtlaridan oqib keluvchi daryo; sariq – loyqa suvli daryo; ko‘p suvli daryo* kabi ma‘nolarga egaligi haqidagi taxminlar borligini ko‘rsatgan. Qadimiy manbalar, shuningdek, yunon tarixchilari fikrlaridan kelib chiqib, Sirdaryo nomi *sir* qabilasi nomidan olinganligi uqtirgan [4; 51].

Bobur o‘zining memuarida *Sayhun daryosikim Xo‘jand suyig‘a mashhurdir, ya‘ni Sayhun daryosi Xo‘jand nomi bilan yuritilishini qayd etgan.*

Sirdaryoning Farg‘ona daryosi, Banokat daryo, Sayhun, O‘tror daryo nomlari bilan atalgani ham ma‘lum. Bu hol gidronimlarda polunimiya hodisasining mavjudligini ko‘rsatadi.

Zarafshon. “Zarafshon daryosikim, uni Ko‘hak daryosi deb yuritadilar, boshlab kunchiqar tog‘laridan chiqib, unga Iskandar bulog‘i – Iskandar ko‘lining suvi va Maschoh tog‘laridan chiqadigan buloqlar qo‘shiladi. Boshqa suvlar va buloqlar bilan birikib, daryo bo‘lib Buxoro va Qorako‘lgacha yetib boradi [11; 122].

Xulosa. O‘rta Osiyo hududidagi Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryo kabilar uzoq davrlar davomida kishilar uchun ichimlik manbayi, chorvalik, dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun sug‘orish ta‘minoti vazifasini bajargan. Xazar dengizi va unda oqib keladigan suv tarmoqlari xalqlar orasidagi turli-tuman munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Ushbu suv manbalarining ko‘plab nomlar bilan atalishi esa ularning kishilar hayotida muhim o‘rin tutganligi bilan izohlanadi.

Xullas, asar tilida qo‘llangan gidronimlar o‘zining bir necha asrlik tarixi bilan ham tariximizni, ham madaniy merosimiz izchil o‘rganish uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Ularni semantik-etimologik jihatdan tadqiq etish, paydo bo‘lish sabablarini oydinlashtirish kelajak avlodimiz tafakkurini rivojlantirish uchun zarur omildir.

## ADABIYOTLAR:

1. Kilichev B.E., Bafoyeva N. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy's novel "Bygone days". Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022.

2. Джанузаков Т. Общeturкские основы казахских гидронимов древнейшего периода // Ономастика Узбекистана. – Т., 1989. – С. 27–29.

3. Жило В.П. О названиях Каспийского моря. Известия АН Азербайджана. № 4. 1960.

4. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Т.: Fan, 1965. – В. 46.

5. Атаниязов.С. Туркменистаннинг топонимияси – Ашхабад, 1981.– В. 26.

6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations/ International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 2021 02 94.

7. Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1959. – Б.37.

8. Дўсимов З., Эгамов Х.Жой номларининг кискача изохди луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1977. – Б.13.

9. Кляшторный С.Г. Древнетуркские рунические памятники. – М.: Наука, 1964.

10. Албаров Б.А. Этноним “царцат” осетинских нартских сказаний// IV Всесоюзная научная конференция по иранской филологии (тезисы докладов) –Т., 1964. – С. 5–8.

11. Абу Тохирхўжа Самаркандий Самария. Форсчадан Абдулмўмин Сатторий таржимаси. – Т. : Янги аср авлоди, 2009. – Б. 122.

12. Bayramali Ergashevich Kilichev A way of making words on proper nouns. International Journal on Integrated Education. Volume 3, Issue II, Feb 2020, pp. 96–98.

13. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104–107.

14. Kilichev B.E., Safarova O. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.

15. Bayramali Kilichev, Timur Khojaoglu, Nodira Adizova Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region). International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16.

ПРАВОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО ФОРМИРОВАНИЕ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА . . . . .	828
ИЗУЧЕНИЕ КАДРОВ В ПОСЛОВИЦАХ С УЧАСТИЕМ «ВЕРБЛЮДА» . . . . .	833
ZAMONAVIY LUG'ATSHILIK TARAQQIYIT BOSQICHLARI . . . . .	839
ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА . . . . .	843
ETHNOOYKONYMS OF BUKHARA . . . . .	848
“TEMUR MALIK” ASARIDAGI GIDRONIMLAR . . . . .	855
MAIN GENRES AND FEATURES OF VIRTUAL COMMUNICATION . . . . .	860
ПРОБЛЕМЫ ЯЗЫКА И СТИЛЯ В ГРАЖДАНСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКЕ . . . . .	864
О ВЫРАЖЕНИИ НЕКОТОРЫХ АВТОРСКИХ РЕЧЕВЫХ НЕОЛОГИЗМОВ В ПОЭЗИИ МУХАММАДА ЮСУФА . . . . .	870
XALQ OG'ZAKI IJODIDA MAKTUBLAR . . . . .	877
ПРОБЛЕМА КОНЦЕПТУАЛЬНОГО И НОВЕРБАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ . . . . .	881
XALQ SHE'RIYATIDA GUL SO'ZI ASOSIDA OBRAZLILIKNING VUJUDGA KELTIRILISHI . . . . .	889
ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКОЙ ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ СТИХОВ АНВАРА ОБИДЖАНА) . . . . .	893
ЖИВОТНЫЕ СИМВОЛЫ В ТВОРЕНИЯХ РАУФ ПАРФИ . . . . .	898
ЧЎЛПОН ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ РАМЗЛАРИ . . . . .	902
ETYMOLOGICAL EXPLANATION OF THE PHENOMENON OF SONG AND THE PROFESSION THAT DENOTES IT . . . . .	906
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ СТУДЕНТОВ ОБ УЗБЕКСКОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ФОЛЬКЛОРЕ . . . . .	911
GENESIS AND DEVELOPMENT OF THE CONCEPTION AND THE CONCEPT “ROAD” . . . . .	915
ОБРАЗНЫХ ПРИЕМОВ И ПОЭТИЧЕСКИХ ФИГУР, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ ТЕКСТОВ ЭССЕ . . . . .	919
ПРО УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ АНЕКДОТОВ . . . . .	924
О НЕКОТОРЫХ ЭТНОНИМАХ В «ДЕВОН» М. КОШФАРИЙ . . . . .	931
YOZUVLAR TARAQQIYOTIDA BOBURNING O'RNI . . . . .	936
ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПАРЕМ, СОЗДАННЫХ НА ОСНОВЕ ЛСГ «НАСЕКОМЫХ» . . . . .	942
J. K. ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI . . . . .	948

**ОДИННАДЦАТАЯ  
МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ОБРАБОТКЕ  
ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ  
«TURKLANG 2023»**


Труды конференции

*В авторской редакции*

Подписано в печать: 01.11.2023.  
Печать офсетная. Гарнитура «Times».  
Формат: 60×84 1/16. Усл.-печ. л. 59,87.  
Тираж 100 экз. Заказ № 1.11/23

Издательство Академии наук РТ.  
420111, г. Казань, ул. Баумана, 20.  
Тел./факс: (843) 292-49-14  
e-mail: izdat.anrt@yandex.ru

ISBN 978-5-9690-1197-7



9 785969 011977